

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI TASHKIL ETISHDA

«MULOQOT TEXNOLOGIYASI»DA FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani 20-maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Töychiyeva Umida Nuridullayevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi zamonaviy maktablarni yanada rivojlantirish hamda buning uchun yoshlarning bilim darajasini oshirish, ularni yurtimizning ertangi kunining ishonchli shaxslari sifatida taribiyalashda pedagoglar tomonidan ta'lif tarbiyani tog'ri tashkl etish, yoshlarni samarali bilim olishlarini ta'minlash maqsadida maktabdagi darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etish, o'quvchilarning dunyoqarashini o'stirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: axborot kommunikatsion texnologiyalar, "Muloqot texnologiya"

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lif tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lif tizimini isloq qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilgo'r pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lif samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ta'lif jarayonining samaradorligini oshirish ta'lif muassasalari va pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ta'lifning samaradorligini oshirish uchun olib borilayotgan ishlarni, shartli ravishda, ikkiga bo'lish mumkin: birinchisi, ta'lifning (o'qitishning) faol metodlarini qo'llash, ikkinchisi, zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish. Albatta, bu ikkala yo'nalishda taklif qilinayotgan o'qitish usullari va vositalari uzoq yillar davomida qo'llanilib kelgan an'anaviy usullarni butunlay yaroqsiz ekanligiga ishora emas. Ta'lif metodi o'z-o'zicha faol yoki passiv bo'la olmaydi. keyingi yillarda faol metodlar deb ataluvchi metodlar o'quvchi va talabalarning bilish jarayonlarini to'g'ridan-to'g'ri faollashtirishga yo'naltirilgandir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayonida qo'llash yaxshi natijalar

berishi ko‘pgina psixolog – pedagog hamda metodistlar tomonidan isbotlangandir. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinushi va takomillashuvi jarayonida har bir o‘qituvchi o‘z kasbiy tayyorgarligini, maxoratini kuchaytirish imkoniyatiga ega. Shu bois men ham darslarimda axborot komunikatsion texnologiyalarni joriy etaman va har doim yaxshi natijalarga erishaman. Ta’lim oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun darsni shunday tashkil etish nazarda tutiladiki, bunda o‘quvchilar ilmiy bilimlarni amalda qo‘llab, ongli va faol egallab oladigan, ijodiy tashabbuskorligi va o‘quv faoliyatida mustaqilligi, tafakkuri, nutqi rivojlanadigan bo‘lsin. bugungi kunda o‘qitishning keng qo‘llanadigan - o‘qituvchi tomonidan dars mavzusi maruza shaklida tushuntirish metodi orqali o‘quvchilar darsni 50 -60% o‘zlashtira oladi, agar darsni turli mutimediya va boshqa zamonaviy texnologiyalar asosida ko‘rsatib tushuntirilsa o‘zlashtirish darajasi 70 – 80% ga yetishi mumkin. Pedagoglar tomonidan darsning samarsini yanada oshirish maqsadida, dars jarayonida o‘quvchining yanada faolligini oshirish orqali darsning o‘zlashtirish darajasini 90% gacha oshirish yo‘llari o‘ylab topildi. Ya’ni, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchi darsga qiziqadi, hamda darsning diqqat bilan tinglaydi, zamonaviy texnologialar asosida tashkil etilgan darsni kuzatadi, dars yaknida esa o‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan o‘yin texnologiasi yordamida o‘quvchilar o‘zlarining biliblarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari imkoni bo‘ladi. bu yangi metodlarni ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Sababi, boshlang‘ich sing o‘qituvchiining asosi vazifasi o‘quvchilarini darsga qiziqtirishdan iborat bo‘ladi. Hozirda pedagoglar tomonidan keng qo‘llanib kelayotgan metod “Muloqot texnologiya” sidir. Ushbu “Muloqot texnologiya” o‘quvchilarning dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, odatda, bunday mashg‘ulot o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratilgan holda o‘tkaziladi. Ushbu metod boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yanada samarali bilim olishlarini ta’minlabgina qolmay, ularning o‘z fikrlarini bayon eta olish, muloqot jarayonida nutqining chiroyli bo‘lishini, baxs – munozaraga erkin kirisha olish imkonini paydo qiladi. “Muloqot texnologiya”si

metodining maqsadi shundan iboratki, tanlangan mavzu, muammo asosida talabalarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiylar fikrini kelishlariga va to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga yoram berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirish va muloqot qila olishga o‘rgatish. Metodni qo‘llash jarayonida o‘qituvchi faqtgina yo‘nalish beradi, baxsmunozara mavzusi haqida tushunchalarni beradi, so‘ngra, o‘quvchilarining fikrlarni tinglaydi. Zamonaviy ta’limning asl maqsadi ham aynan shu. Ya’ni, dars jarayonida o‘quvchilarining faolligini oshirish va o‘z fikriga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamarajab Tojiyev, bo‘ri Ziyamuxamedov, Mavjuda O‘ralova “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash” «Tafakkur-bo‘stoni», 2012.
- 2 N.X. Avliyakulov, N.N. Musaeva “Pedagogik texnologiya” «Tafakkur bo‘stoni» Toshkent- 2012